



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

YASHIL LOGISTIKA: BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Pardaboyeva Xusnora Ilxom qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Menejment va Marketing kafedrasи assistenti

Annotatsiya.

Global miqyosda ekologik muammolar kuchayib borayotgani sababli logistika sohasida ham “yashil” yechimlarni joriy etish zarurati ortmoqda. Yashil logistika transportdan chiqadigan karbon izini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, korxonalar uchun ekologik toza texnologiyalarni qo’llash brend imidjini mustahkamlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: yashil logistika, barqaror rivojlanish, ekologik transport, qayta ishlash, energiya samaradorligi

Asosiy qism

Yashil logistika atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirishga qaratilgan strategiya bo‘lib, transport va ombor xo‘jaligida ekologik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Elektr va gibrild avtomobillardan foydalanish chiqindi gazlarini sezilarli kamaytirsa, energiya tejamkor ombor majmualari esa quyosh panellari va avtomatlashtirilgan yoritish tizimlari yordamida elektr sarfini qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida yo‘nalishlarni optimallashtirish transport xarajatlarini kamaytiribgina qolmay, yoqilg‘i iste’molini ham pasaytiradi.

Bundan tashqari, yashil logistika resurslardan oqilona foydalanishni targ‘ib qiladi. Masalan, qadoqlash materiallarini qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda korxonalarining ekologik mas’uliyatini kuchaytiradi. Natijada, yashil logistika nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki kompaniyalarning brend imidjini mustahkamlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

Xulosa

Yashil logistika konsepsiysi nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida yashil logistika yechimlarini joriy etish transport tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro ekologik standartlarga moslashish va kelajak avlod uchun barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. 5th Edition. Pearson Education Limited.
2. Sarkis, J. (2017). Greening the Supply Chain. Springer International Publishing.
3. Sbihi, A., & Eglese, R. W. (2010). “Combinatorial Optimization and Green Logistics.” Annals of Operations Research, Vol. 175, pp. 159–175.
4. Wu, H. J., & Dunn, S. C. (1995). “Environmentally Responsible Logistics Systems.” International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, Vol. 25(2), pp. 20–38.
5. European Environment Agency (2021). Green Logistics and Sustainable Transport. Retrieved from: <https://www.eea.europa.eu>